

**Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Salieva Muhabbat Kushanovnaning
“Xalqaro jurnalistika va diplomatiya” nomli darsligiga
TAQRIZ**

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida O‘zbekistonning diplomatiyasi tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu umumiylazariy darajadagi qonuniy manfaatlarni, vositalarni, usullarni va shakllarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni muhokama qilishning ahamiyatini oldindan belgilab beradi.


Taniqli olma M.K.Solieva xalqaro jurnalistika masalalariga oid bir qator monografiya, o‘quv adabiyotlari va ilmiy maqolalari bilan jamoatchilikka yaxshi tanish. M.K.Salievaning “Xalqaro jurnalistika va diplomatiya” nomli ushbu darsligida bugungi zamonaviy jamiyatda inson huquqlari va insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, diplomatik madaniy huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta’minlaydigan milliy qonunchilik me’yorlari tahlil qilingan bo‘lib, jamiyat hayotidagi rivojlanish tendensiyalari o‘z ifodasini topgan.

Ushbu darslikda xalqaro jurnalistikaning o‘ziga xos jihatlari alohida yoritilgan va diplomatik masalalarda o‘ziga xoslik kasb etuvchi munosabatlar sub’ektlari: Internet, elektron ma’lumotlar bazasi o‘rtasida elektron aloqa vositalaridan konstruktiv foydalanish ko‘p jihatdan diplomatik axborot va aloqa tabiatini va yo‘nalishidagi o‘zgarishlarni oldindan belgilab berilganligi to‘g‘risidagi manbalar tizimlashtirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu nashrda xalqaro jurnalistika va diplomatiya tizimining rivojlanishiga doir ma’lumotlar chuqur tahlil etilgan. Mavzuni o‘rganishga maxsus fasllar ajratilib, xalqaro jurnalistika va diplomatiya tizimlarining zamonaviy shakllari o‘rganilgan.

Mazkur darslikda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan berilgan takliflar, huquqiy va siyosiy kommunikatsiyaviy muammolarning tahlili berilganki, ulardan “Jurnalistika va iqtisodiyot nazariyasi muammolari”, “Zamonaviy innovatsion texnologiyalar”, “Huquqiy texnika”, “Huquqiy madaniyat”, “Siyosiy muloqot”, “Jurnalistik diplomatiya” kabi maxsus kurslarda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mazkur nashrdan aholining huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirishga qaratilgan tadbirlarda ham foydalanish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Salieva Muhabbat Kushanovnaning “Xalqaro jurnalistika va diplomatiya” darsligini nashr etishga tavsiya etish mumkin, deb hisoblayman.

**TDSHU Tarjimashunoslik,
tilshunoslik va xalqaro
jurnalistika oliy maktabi dotsenti,
filologiya fanlari doktori**



R.X. SHARIPOV